TALABALARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Axnazarova D.E,
Guliston davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti
Sunnatova G.,
GulDU talabasi
Diyoraaxnazarova92@gmail.com

Annotatsiya: tezisda talablarda kreativlik jihatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari, kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari uchun o‘quv va mustaqil ishlash jarayonlarida yangi g’oyalarni yaratish haqidagi fikrlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik sifatlari, bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat, shaxs kreativligi, kasbiy ijodkorlik.

Annotation: the article highlights effective ways to develop creativity aspects in requirements, ideas about creating new ideas in educational and independent work processes so that they have creativity qualities.

Keywords: qualities of creativity, knowledge, skills, qualifications, creative activity, personality creativity, professional creativity.

Ma’lumki, talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil bo‘lishida mazmundor, mantiqiy fikrlashishida ulardagi ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlarini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tadqiq qilish jarayoni talabalar va uning intellekti, ijodiy potensiallari, ijodiy resurslarini o‘quv faoliyatiga

safarbar qilish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy tadbirlar ko‘lamini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili (bu haqida I bobda batafsil bayon etilgan) va biz tomonizdan masalaga daxldor tadqiqotlarni kuzatishlarimizga asoslangan ilmiy-tadqiqiy mulohazalar bugungi kunda uzluksiz talimning barcha bosqichlarida tahsil olayotgan talabalarda ijodiy faollik xususiyatini shakllanish jarayonini o‘rganishni va tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.

Buning uchun esa, dastavval, ijodiy faollik xususiyatlarini shakllantirishdagi uning psixologik jihatlari va psixologik omillar va mezonlar va tarkibiy sifatlar ko‘lamini belgilash va ularning har birini chuqur o‘rganish lozim bo‘ladi.

Talabalarda ijodiy faollikning rivojlanish mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashda birinchi navbatda uning o‘ziga xos sifatlarini o‘rganishimiz va ularning ichida aynan talabalik yoshida ustuvorlik qiladigan sifatlarini aniqlab olishimiz, keyinchalik mazkur sifatni yanada rivojlantirish va shakllantirish imkonini beradi.

Biz tomonizdan maslaga daxldor adabiyotlar taxlil talabalarda ijodiy faollik xususiyatlarini quyidagicha tarkibiy sifatlari mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

Talabalarda "Kreativ fikrlash" fani orqali ijodkorlik ko‘nikmalarini inson salohiyati, yuksak tafakkuri, istedod va qobilyatlari, hissiyot, kechinmalari, noodatiy qarorlari, tanqidiy qarashlari, mulohazalari orqali shaklanishini asoslashdan iborat. . O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi. Shaxsda kreatiqlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab ― kreativlik‖ tushunchasining ma’nosini tushunib olish talab etiladi. Masalan, Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, ―Kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui‖ sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: ―Kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim. Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik ―muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish‖ demakdir. Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o‘qituvchilar ham aslida ―kreativlik‖ tushunchasi qanday ma’noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo‘sh, o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: ―Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga

tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi.

Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda ―kreativlik‖ tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, ―talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati, faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi kunda ta’lim amaliyotining kreativ xarakter kasb eta olmayotganligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va buning sabablari hamda ularni bartaraf etish shartlarini quyidagilar bilan izohlaydilar: ―Ko‘p hollarda, o‘qituvchilar fanning faqat mazmuni bilan tanishadilar, biroq fikrlash jarayoniga katta ahamiyat, e’tibor va talablar qanday rivojlanishlari mumkinligi haqida hech qanday ma’lumot bermaydilar.

O‘qituvchining palapartish yo‘riqlar berish yondashuvining samaradorligi talabalar o‘quv faoliyatini oshirishga yo‘naltirilgan metod va strategiyalardan sezilarni darajada past foydalanadilar‖ (Beghetto, Kaufman, 2010; Kirschner, Sweller, Clark, 2006). Vaholanki, talabalarda fikrlash ko‘nikmasi bo‘yicha yo‘riqlarni aniq va tushunarli yetkazib berish uchun o‘qituvchi (tanqidiy, kreativ) fikrlash usullari, ko‘nikmalarni samarali shakllantirish yo‘llari bilan talabalarni tanishtirish orqali talabalar o‘quv faoliyatini nazorat qilish va uni yo‘naltirishi lozim‖ Masalan, talabalar ―Aqliy hujum‖ strategiyasi asosida o‘rganish jarayonda, eng avvalo, strategiyaning o‘zi nimaligini, uni qanday qo‘llash zarurligi haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishlari lozim.

Quyida biz kreativlikni rivojlantirish bilan bog’liq beshta asosiy psixologik xususiyatni ko‘rib chiqamiz: Ichki motivatsiya tashqi mukofotlar yoki bosimlar uchun emas, balki o‘ziga xos zavq va qoniqish uchun faoliyat bilan shug’ullanishni anglatadi.

Yuqori darajadagi ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan talabalar qiziqish, ishtiyoq va topshirilgan vazifaga chinakam qiziqish bilan harakat qilishadi. Ular ko‘proq yangi g’oyalarni o‘rganishga, tavakkal qilishga va qiyinchiliklarga qarshi turishga

moyildirlar, bularning barchasi ijodiy jarayonning muhim tarkibiy qismidir. Ichki motivatsiya o‘quvchilarning o‘rganish va yaratishga bo‘lgan ichki istagini kuchaytiradi va kreativlikni rivojlantirish uchun kuchli katalizator bo‘lib xizmat qiladi.

Tajribaga ochiqlik - bu yangi g’oyalar, istiqbollar va tajribalarni qabul qilish bilan tavsiflangan shaxsiy xususiyatdir. Ochiqlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar noan’anaviy g’oyalarni o‘rganishga, mavjud me’yorlarga qarshi chiqishga va noaniqlikni qabul qilishga tayyorligini namoyish etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimaskin M.L. Vospitanaya rabota s podroskami. M.,‖Znanie‖, 2009
2. Levitov N.D. O psixicheskix sostoyaniyax cheloveka. M.,2006
3. Kaufman, J. C., & Beghetto, R. A. (2009). Beyond big and little: The four C model of creativity. Review of General Psychology, 13(1), 1–12.
4. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The standard definition of creativity. Creativity Research Journal, 24(1), 92–96.
5. Sawyer, R. K. (2012). Explaining creativity: The science of human innovation. Oxford University Press.
6. Sternberg, R. J. (Ed.). (1999). Handbook of creativity. Cambridge University Press.